


2019-yil 1-noyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida Respublikamizda 3374 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1100 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonava tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2806 ta (17,7 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 18632 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-noyabr holatiga 18632 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,8 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 22,8 % savdo, 12,5 % sanoat, 11,7 % qurilish, 11,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 27,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiysoni, birlik		01.11.2019 yil	
	01.11.2018 yil	01.11.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	15826	18632	117,7	100
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1961	2095	106,8	11,2
Sanoat	1755	2322	132,3	12,5
Qurilish	1706	2182	127,9	11,7
Savdo	3244	4240	130,7	22,8
Tashish va saqlash	776	859	110,7	4,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	926	1153	124,5	6,2
Axborotvaaloqa	311	336	108,0	1,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	290	359	123,8	1,9
Boshqa turlari	4857	5086	104,7	27,3

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5760 ta), To'rtko'l (1925 ta), Beruniy (1554 ta) va Amudaryo (1389 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Taxtako'pir (345 ta), Mo'ynoq (403 ta) hamda Shumanay (457 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 18191 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2815 taga (18,3 %) o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,7 % savdo, 12,5 % sanoat, 11,8 % qurilish, 11,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5683 ta), To'rtko'l (1826 ta), Beruniy (1522 ta) Amudaryo (1337 ta) va Ellikkala (1159 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Taxtakopir (332 ta), Mo'ynoq (398 ta) hamda Shumanay (452 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 3374 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 48,4 % ga o'sgan.

**Yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalarva tashkilotlarning
yillar kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Nukus shahri (998 ta), To'rtko'l (350 ta), Amudaryo (244 ta) va Beruniy (246 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Taxtakopir (60 ta), Qanliko'l (86 ta) hamda Shumanay (88 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1149 ta), sanoat (659 ta), qurilish (503 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (267 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlash (116 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (68 ta), axborot va aloqa (62 ta) hamda faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-noyabr holatiga 14557 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 3134 ta, oilaviy korxonalar - 981 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 10141 ta, unitary korxonalar - 128 ta, aksiyadorlik jamiyatlar - 27 ta va boshqalar 146 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona




Unitar korxonona



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 144 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 32 taga yoki 28,6 %ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokida korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Nukus shahrida (34 ta), Mo'ynoq (19 ta), Taxiotosh va Qorao'zak tumanlarida (10 tadan) hamda Kegeyli va Nukus (9 tadan) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari To'rtko'l, Xo'jayli va Chimboy (4 tadan) tumanlarida kuzatilgan.

Yanvar-oktyabr oilarida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 82 tasi qo'shma korxonalar, 62 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollikdarajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlarning tumanlar kesimida soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	144	100
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	6	4,2
Beruniy	8	5,6
Qorauzak	10	6,9
Kegeyli	9	6,3
Qongirot	6	4,2
Qonlikol	6	4,2
Muynoq	19	13,2
Nukus	9	6,3
Taxiatosh	10	6,9
Taxtakupir	5	3,5
Turtkul	4	2,8
Xujayli	4	2,8
Chimboy	4	2,8
Shumanay	5	3,5
Ellikqala	5	3,5
Nukus sh.	33	23,6

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 30 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga ko'paygan.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Nukus shahar (12 ta yoki jumladan ulushi 40,0 %), Qorao'zak, Mo'ynoq, va To'rtko'l tumanlari (3 tadan yoki 10,0 %), Beruniy tumani (2 ta 6,7%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Amudaryo, Kegeyli, Qanliko'l, Nukus Taxiato'sh, Shumanay va Ellikkala tumanlari (1 tadan yoki 3,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 11 ta, Qozog'iston Respublikasi -7 ta Janubiy Koreya Respublikasi -3 ta, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston Respublikasi hamda Britaniyaning Virginiya Orollari mamlakatlarida - 2 tadan, Niderlandiya Qirolligi, Turkiy Respublikasi va Gruzya Respublikasi -1 tadan korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat 11 ta (36,7 %) savdo 8 ta (26,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 6 ta (20,0%), qurilish 3 ta (10,0%), faoliyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlashva ijtimoiy xizmatlarda hamda tashishva saqlashda 1 tadan (3,3%) tashkil etgan.


2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagikorxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yichasoni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 14481 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1- noyabr holatiga qaraganda 22,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4798 tasi (33,1 %) Nukus shahri, 1549 tasi (10,8 %) To'rtko'l, 1226 tasi (8,5 %) Beruniy hamda 1030 tasi (7,1 %) Amudaryo tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
tumanlar kesimida jamidagi ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14481 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4122 tasi (28,5 %) - savdo, 2243 tasi (15,5 %) - sanoat, 2142 tasi (14,8 %) - qurilish, 1954 tasi (13,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1118 tasi (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 834 tasi (5,8 %) - tashish va saqlash, 283 tasi (2,0 %) - axborot va aloqa sohasi, 259 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1526 tasi (10,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 3207 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 74,5 % oshgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar mikrofirmalar Nukus shahri (946 ta), To'rtko'l (335 ta), Amudaryo (236 ta) va Beruniy tumanlari (222 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Taxtakopir (57 ta), Qanliko'l (84 ta), Shumanay (85 ta) hamda Qorao'zak (98 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1149 ta), sanoatda (659 ta), qurilishda (502 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (265 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (116 ta), axborot va aloqada (62 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (49 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-noyabr holatiga 1011 tani tashkil etib, ulardan 981 tasi yoki 97,0 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 72,2 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 27,8 % yoki 273 tasi sanoat, 25,0 % yoki 245 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 27,4 % yoki 269 tasi savdo, 6,0 % yoki 59 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,5 % yoki 5 tasi tashishva saqlash, 2,1 % yoki 21 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 10 tasi qurilish, 1,7 % yoki 17 tasi axborot va aloqa hamda 8,5 % yoki 82 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




2019-yilning 1-noyabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat, savdo hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kam esa qurilish hamda tashishva saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalarining tumanlar kesimida soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	341	100
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	90	26,4
Beruniy	16	4,7
Qorauzak	1	0,3
Kegeyli	9	2,6
Qongirot	11	3,2
Qonlikol	22	6,5
Muynoq	8	2,3
Nukus	12	3,5
Taxiatosh	26	7,6
Taxtakupir	8	2,3
Turtkul	29	8,5
Xujayli	16	4,7
Chimboy	5	1,5
Shumanay	3	0,9
Ellikqala	22	6,5
Nukus sh.	63	18,5

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 341 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,2 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Amudaryo tumanida (90 ta), Nukus shahrida (63 ta), To'rtko'l (29 ta) va Taxiatosh tumanida (26 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorao'zak (1 ta), Shumanay (3 ta) hamda Chimboy (5 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,3 % yoki 100 tasi sanoat, 39,9 % yoki 136 tasi savdo, 16,7 % yoki 57 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 3,5 % yoki 12 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,5 % yoki 5 tasi qurilish, 1,2 % yoki 4 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 1,9 % yoki 6 tasi axborot va aloqa hamda 5,9 % yoki 20 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi.
Tel.:71-230-82-23(24)**